

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	244
Z.T.Aripov	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	247
N.O.Saidova	
Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	251
M.A.Abdubannobova	
O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi jarayoni va uning joriy etilishi.....	254
O.A.Ashurova	
Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati.....	257
B.Latipov	
Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli.....	261
T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi.....	265
V.T.Jo'rayev	
Oliy ta'lim massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	269
Z.M.Xursanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	274
M.A.Jalilov	
O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida.....	279
Z.X.Siddiqov	
Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlar.....	283
M.G'.Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish.....	287
Г.П.Наркабилова	
Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику.....	291
M.Sh.Dehqonova	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari.....	295
N.Q.Olimova	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish.....	299
D.T.Rustamova	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish.....	304
Y.U.Egamberdiyeva	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish.....	309
U.Y.Axmedova	
Texnologik ta'lim asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish.....	313
M.U.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi.....	317
M.A.Mamasaidova, S.Sobirova	
Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli.....	321
M.A.G'ofurova	
Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish.....	325
D.M.Gazieva	
Psychological and pedagogical aspects of media use in education.....	331

PEDAGOGIKA

teaching. This includes both teaching aids and technology tools. Although they are different, they also have things in common. It's important to learn about technology in school, figure out the best ways to use it, and decide what works best for them. It is appropriate to consider the formation of a creative person as the development of a person in terms of creative activities performed in a mutually compatible manner and creation of creative products.

Kalit so'zlar: Inegratsiya, kompetensiya, tayanch kompetensiya, texnologiya, komyuterli ta'lim, an'anaviy o'qitish, interoeksiya, sinektika, tafakkur.

Ключевые слова: Интеграция, компетентность, базовая компетентность, технология, компьютерное образование, традиционное обучение, взаимодействие, синектика, мышление.

Key words: Integration, competence, basic competence, technology, computer-based education, traditional teaching, interoection, synectics, thinking.

KIRISH

Jahon mamlakatlari kelajak kadrlarni tayorlashda talabalarni zamonaviy bilimlar bilan o'qitish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, egallangan bilimlarini ijodiy tarzda qo'llash zamonaviy ta'limning asosiy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsada, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. [1] Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. "Kreativ pedagogika" fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shartsharoitni yaratishga xizmat qiladi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezing muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. [2] Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shartsharoitlar hamda inson ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq. Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi. [3] Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida talaba va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada foydalanilgan adabiyotlar quyidagi mavzularga oid:

1. "Интегрированная информационная среда профессиональной деятельности учителя технологии" nomli avtoreferat. Ushbu dissertatsiyada o'qituvchilarning texnologiya fanida ish faoliyati uchun integratsion informatsion muhit mazmuni va ahamiyati tahlil qilingan.[4]

2. "Интеграции образования // Обучение за рубежом " nomli maqolada o'zbek tili yo'nalishida integratsiya mavzusining muhokamalari ko'rsatilgan. Maqolada xalqaro ta'lim tizimida o'zbek tili o'qitishning integratsiyasi va uning muhimligi haqida ma'lumotlar berilgan.

3. "Педагогика и прогрессивные технологии обучения" nomli kitobda pedagogikaning progressiv tekhnologiyalar bilan bog'liq bo'limlari tahlil qilingan. Ushbu kitobda o'rganish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanishning o'quv jarayonini qanday o'zgartirishi mumkinligi ko'rsatilgan.

4. "Влияние современных информационных технологий на коммуникативные характеристики личности // Гуманизация образования" nomli maqolada so'nggi axborot



UO'K: 218.117.84

**ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL USULLAR VA ZAMONAVIY AXBOROT
TEKNOLOGIYALARINI O'QUV JARAYONIGA TATBIQ ETISH USULLARI****ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ В ПРОЦЕССЕ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И
МЕТОДЫ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ****INTERACTIVE METHODS IN THE PROCESS OF MODERN EDUCATION AND
METHODS OF APPLYING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES TO THE
EDUCATIONAL PROCESS****Dilbarjonov Avazbek Ravshanbek o'g'li** 
Farg'ona davlat universiteti, doktorant**Annotatsiya**

Bu maqolada, axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan o'qitish jarayonining integratsiyasi, umumta'lim maktablari va professional ta'limda muhim ustuvor vazifalar va ularning hal qilinishi haqida tahlil va muhokama qilish mumkin. Texnologiya fanini o'qitish jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini integrativ yondashuv asosida tatbiq qilish orqali o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish dolzarb muammoning ijobiy yechimini topishga xizmat qiladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalari qaratilgan qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shartsharoitlar hamda inson ontogenezini – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorislikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq holda amalga oshadi. O'qitishda turli vositalar va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bunga o'qitish vositalari ham, texnologiya vositalari ham kiradi. Garchi ular bir-biridan farq qilsalar ham, ularning umumiy jihatlari ham bor. Maktabda texnologiyani o'rganish, undan foydalanishning eng yaxshi usullarini aniqlash va ularni nima yaxshi qilishini hal qilish muhimdir. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Аннотация

В данной статье можно проанализировать и обсудить интеграцию учебного процесса с информационно-коммуникационными технологиями, важные приоритетные задачи и их решение в общеобразовательной школе и профессиональном образовании. Путем применения передовых педагогических и информационных технологий в процессе преподавания технологических наук на основе интегративного подхода формирование базовых и научных компетенций студентов служит поиску положительного решения актуальной проблемы. Профессиональная зрелость – важный период онтогенеза человека, начинающийся с профессионального становления и развития идей (14-17 лет) и заканчивающийся профессиональной деятельностью (55-60 лет). Становление и развитие творческой личности осуществляется в зависимости от взаимной совместимости изменений его внутреннего и внешнего мира, социально-экономических условий и онтогенеза человека - от рождения до конца его жизни, содержания деятельности, требующей непрерывности и преемственности. В обучении важно использовать различные инструменты и методы. Сюда входят как учебные пособия, так и технологические инструменты. Хотя они и разные, у них есть и что-то общее. В школе важно изучать технологии, выяснять, как лучше всего их использовать, и решать, что лучше всего подходит для них. Формирование творческой личности уместно рассматривать как развитие личности в плане творческой деятельности, осуществляемой взаимосовместимым образом, и создания творческих продуктов.

Abstract

In this article, it is possible to analyze and discuss the integration of the teaching process with information and communication technologies, important priority tasks and their solution in general education schools and professional education. By applying advanced pedagogical and information technologies to the teaching process of technological science on the basis of an integrative approach, the formation of basic and scientific competences of students serves to find a positive solution to the current problem. Professional maturity is an important period of human ontogeny, starting with professional development and development ideas (14-17 years old) and ending professional activity (55-60 years old). The formation and development of a creative person is carried out depending on the mutual compatibility of changes in his inner and outer world, socio-economic conditions and human ontogeny - from birth to the end of his life, the content of activity that requires continuity and succession. It is important to use different tools and methods in

PEDAGOGIKA

Masalan: darsliklarda berilayotgan mavzular ma'lumotlari boshqa bir fanning mavzulari ma'lumotlariga mos kelishi, fanning mavzulari o'zaro bir-birini to'ldirishi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga yangi bilimlarni berish davomida ularda bilimlar zanjirini hosil qilishi kerak. Bunda esa ularga mana shu integrativ ta'lim yordam beradi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, integrativ ta'lim boshlang'ich ta'lim jarayonida quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

1. Fanning turli yo'nalishlar o'rtasida bog'liqlik: O'quvchilar bir fan doirasida olgan bilimlarini boshqa fanlar bilan bog'lay olishi, bu esa bilimlarni yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

2. Kompleks fikrlash qobiliyati: Integrativ yondashuv o'quvchilarning analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Motivatsiya oshishi: Turli fanlar birlashtirilishi o'quvchilarda ta'limga nisbatan qiziqish va motivatsiyani uyg'otadi.

4. Ijodkorlikni rivojlantirish: Integrativ ta'lim o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi, chunki ular yangi noodatiy yechimlar topishga intiladilar.[2]

Integrativ ta'lim boshlang'ich ta'limda qo'llanilishi o'quv jarayonini samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuvni qo'llashda o'qituvchilarning ro'li katta, chunki ular turli fanlarni bir-biriga bog'lab, o'quvchilar uchun qiziqarli va foydali darslar tashkil etishlari kerak. Shuningdek, integrativ ta'limni amalga oshirish uchun maxsus o'quv dasturlari va metodikalari ishlab chiqilishi zarur.

XULOSA

Integrativ ta'lim boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilarni tayyorlash, maxsus o'quv dasturlarini yaratish va resurslar bilan ta'minlash zarur. Integrativ ta'lim orqali o'quvchilarni ko'p qirrali va kompleks fikrlashga undash mumkin bo'ladi. Integrativ ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun: O'qituvchilarga integrativ ta'lim usullarini o'rgatish va ularni qo'llashga undash; Boshlang'ich maktablarni kerakli resurslar va materiallar bilan ta'minlash; Integrativ ta'lim uchun maxsus metodikalar va qo'llanmalar yaratish kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PFRQ – 5538-son farmoni, "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2018-yil 10-sentyabr, 36-son, 722-modda.
2. N.X. Avliyakov, N.N. Musayeva Pedagogik texnologiyalar-T.: „Fan va texnologiyalar“ nashriyoti, 2008-yil.
3. R.A. Mavlonova, N.X. Raxmonqulova "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya". T. TDPU 2007-yil
4. K.Sh. Nishonova "Integrativ ta'lim tushunchasi va uning mazmun mohiyati" (2024) "Science and innovation" xalqaro ilmiy jurnali
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining elektron sayti: www.edu.uz.

KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich o'z nutqida: "Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo'q. Faqat ilm va ma'rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz"- degan fikrlarni ilgari surgan.[1] Shiddat bilan rivojlanib borayotdan jahonda, ta'lim tizimi ham jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Bu esa pedagoglardan ta'lim tizimiga innovatsion va kreativ yondashuvni talab qilmoqda. Hozirgi kunda innovatsion tushunchalarning kengayib borishi ta'limga kiritilayotgan o'zarishlardan desak ham to'g'ri bo'ladi. Ta'limning boshlanishi boshlang'ich sinfdan bo'lganligi uchun, asosan, e'tiborni boshlang'ich sinflarga qaratmoq kerak. Innovatsiyaning maqsadi – sariflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat.[3] Innovatsion darslarni tashkillash, o'quvchilar ongida yangi tushunchalarni izohlari bilan esda saqlatish, asosan esa, ta'limni hayot bilan integratsiya qilish integrativ ta'limning mazmun va mohiyati hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda integrativ ta'lim nima, unga nimalarni misol qilish mumkinligi haqida o'qituvchilar yetarli bilim malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Integrativ ta'lim tushunchasi haqida fikr yuritadigan bo'lsak dastlab integratsiya so'ziga to'xtalib o'tishimiz kerak. «Intergratsiya» so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zlaridan tarkib topgan ikkita tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon hisoblanadi.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni hisoblanadi.

Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularning dunyosining birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, fanlararo bog'liqlik, fan ichida mavzulararo bog'liqlik va tabiatshunoslik kursida predmentlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liqdir. Ta'limdagi integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang'ich, tabiat haqidagi elementlar [bilimlarni birlashtiradi](#); oraliq - predmetlar bo'limlarini bo'lish intergratsiyasi; yakuniy - tabiatshunoslikni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ta'limning oxirgi bosqichi integratsiyasi. Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta'limni to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi. [4] Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa [bilimlardan nisbatan ajralgan](#), shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng soddasi tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganishi asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish yangi fakt va tushunchalarning tanlanishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi. Bilimlarning eng oddiy umumlashtirish sodir bo'ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo'lgan bilimlar bilan bog'lansa edi.

Bunda o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlarni bilishini ta'minlaydi. (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi) o'rganilayotgan fan doirasidagi bilimlarda keng foydalanish kuzatiladi. Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatining eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli [tizimlarini birlashtiradi](#), hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilishiga imkoniyat beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularin bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasida bo'shliqliklarni aniqlashga imkon beradi.

Bayon qilingan psixologik dalillar boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktab ta'limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Keyingi yillarda boshlang'ich ta'lim sohasida integrativ ta'limni o'rganish alohida ahamiyatga ega bo'lganligi bois, ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli, boshlang'ich sinf darsliklari ham integrativ ta'lim asosida nashr qilinmoqda.



UO'K: 37.016:53

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATIV TA'LIM VA UNING TURLARI.**ИНТЕГРАТИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЕГО ВИДЫ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.****INTEGRATIVE EDUCATION AND ITS TYPES IN PRIMARY EDUCATION.**

Nishonova Kamola Shokirjon qizi 
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim haqida tushuncha, ta'lim turlari haqida tushuncha, boshlang'ich ta'limning o'ziga xosligi, ta'limni tarbiya turlari bilan integratsiya qilinishi, boshlang'ich ta'limda fanlarning bog'lanishi, integratsiya so'zining lug'aviy ma'nosi, integrativ ta'limning mazmun va mohiyati, boshlang'ich ta'limda integrativ ta'limning qo'llaniladigan usul va vositalari, ularni amaliyotda qo'llash yo'l-yo'riqlari, integrativ ta'limning o'qituvchilarga ko'magi va o'quvchilarga foydali jihatlari, pedagoglar tomonidan qanday qilib darslarda integrativ ta'limdan foydalanish kerakligi, kompleks fikrlash va uning ta'lim jarayaniga ta'siri, analitik fikrlash va uning o'quvchiga ta'siri, tanqidiy fikrlash qobiliyati, motivatsiya oshishi, ijodkorlikni rivojlantirish, integrativ ta'lim o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvoffaqiyatlari ularning dunyosining birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'quvchilarni ta'limga nisbatan qiziqishini uyg'otish, berilgan topshiriqlarga noodatiy va yangi yechimlar topishga intilishlari, ta'lim jarayodida innovatsion tushunchalar, tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlarni bilishini ta'minlaydi. (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi) o'rganilayotgan fan doirasidagi bilimlarda keng foydalanish kuzatiladi, bayon qilingan psixologik dalillar boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktab ta'limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются понятие современного образования, понятие типов образования, уникальность начального образования, интеграция образования с видами образования, связь предметов в начальном образовании, слово интеграция, словарное значение, содержание и сущность интегративного образования, методы и инструменты интегративного образования, используемые в начальном образовании, рекомендации по их практическому применению, поддержка интегративного образования для учителей и преимущества для учащихся, как педагогам следует использовать интегративное обучение на занятиях, сложное мышление и его влияние на учебный процесс, аналитическое мышление и его влияние на учащихся, способность критического мышления, повышение мотивации, развитие творческих способностей, успешность интегративного образования в обучении, развитии и воспитании учащихся, формирование понимания единства своего мира, пробуждение Интерес учащихся к образованию, их стремление находить необычные и новые решения поставленных задач, инновационные концепции в образовательном процессе, воображение внутри системы обеспечивают знание учащимися целого ряда предметов. (физическое, химическое, биологическое, системное знание) широко используется в области познания, описанные психологические данные позволяют определить основные особенности интеграции начального, неполного среднего и старшего школьного образования.

Abstract

In this article, the concept of modern education, the concept of types of education, the uniqueness of primary education, the integration of education with the types of education, the connection of subjects in primary education, the word integration the dictionary meaning of, the content and essence of integrative education, the methods and tools of integrative education used in primary education, guidelines for their practical application, integrative education support for teachers and benefits for students, how pedagogues should use integrative learning in classes, complex thinking and its impact on the educational process, analytical thinking and its impact on students, critical thinking ability, increase in motivation, development of creativity, success of integrative education in teaching, development and upbringing of students, the formation of an understanding of the unity of their world, arousing students' interest in education, and their desire to find unusual and new solutions to given tasks, innovative concepts in the educational process, imaginations within the system ensure that students know a whole range of subjects. (physical, chemical, biological, system of knowledge) is widely used in the field of knowledge, the described psychological evidence allows to determine the main features of the integration of primary, incomplete secondary and high school education.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, integrativ ta'lim, metod, vosita amaliyotda qo'llash, mazmun-mohiyat

Ключевые слова: Начальное образование, интегративное образование, метод, применение инструмента на практике, содержание-сущность.

Key words: Primary education, integrative education, method, tool application in practice, content-essence

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
4. Pedagogika entsiklopediya II jild. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. - B.102.
5. Raximova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bosqichlari va mazmuni // *Uzluksiz ta'lim*. - Toshkent, 2021. - B. 98-102.
6. Yo'ldosheva S. O'zbekistonda yoshlarni ma'naviy tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik asoslari. Ped.f.n. ... diss. - T.: 2000. -109 b.
7. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. - T.: 1993. -364 b.
8. Muxsiyeva A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari. Avtoreferat. pedagogika fan. nom. diss. - T.: 2005. - 8 b.
9. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ... dis. - T.: 2007. -377 b.
10. Musayev F.A. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. Falsafa fan...dok. diss. T.: 2008. 36 b.
11. Zulfia, S. (2023). Methodology of Teaching the Heritage of the Ancestors through Teaching the Science of Education to Primary Class Students. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(8), 121-125.
12. Qizi, S. Z. M. (2021). Pedagogical Mechanisms Of The Formation Of The Social Outlook Of Future Teachers In The Context Of The Informatization Of Education. *The American Journal Of Applied Sciences*, 3(04), 203-207.
13. Inomzoda, A. A. (2021). " Improving The Teaching Of" Education" On the Basis of Multimedia Technologies"(On the Example of Primary Classes). *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 88-90.
14. Abdujabborovna, K. S. (2021). Pedagogical Conditions Of Professional Direction Of Pupils Of The Orphanage. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 1(2), 158-160.
15. Уринова Ф, Сидикова З. КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИ НУТҚ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА КИТОБ ВА УНИНГ АХАМИЯТИ. *Scientific Bulletin of Namangan State University*. 2019;1(12):344-7.

PEDAGOGIKA

nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi tabiiyki, har bir o'qituvchini o'z ustida ishlashga, malakasini oshirishga, ongi va salohiyatini rivojlantirishga, tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishga undaydi;

✓ bugungi kunda shiddat bilan kechayotgan jarayonlar yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarning mazmun va mohiyati, o'ziga xos xususiyati va dars jarayonlarida qo'llash usullarini chuqurroq o'rganish, tadqiq etish lozimligini anglatmoqda.

Barkamol avlodni tarbiyalash uchun ularning ijodiy qobiliyatini o'stirish, mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirish zarur bo'lganidek, o'z o'rnida pedagoglarda ham ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri va muvaffaqiyatli tashkil etish mahoratini oshirish lozimligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shu bois bugungi kunda "Tarbiya" fanini o'qitish da quyidagi eng muhim talablar qo'yilmoqda:

✓ har bir darsda tanlanadigan mavzuning ilmiy asoslanganligi, ya'ni darsdan ko'zlangan maqsad hamda o'quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, o'tgan darsdagi o'tilgan mavzu bilan bog'lash, o'quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo'ladigan jihozlarni belgilash va qo'shimcha ko'rgazmali qurollar bilan boyitish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatni yaratish; [1]

✓ -"Tarbiya" fanini (1-4-sinflar), (5-6-sinflar), (7-8-9-sinflar), (10-11-sinflar) o'qitish bo'yicha interfaol usullarni qo'llash, amalda qo'llanilayotgan va yangi o'quv qo'llanmalarning mazmunini o'rganish va tahlil etish;

✓ dars mavzularini bayon etishda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan muqaddas manbalarimizdan, ertak, rivoyat, hikoya, maqol va hikmatlardan, buyuk ajdodlarimizning boy meroslaridan, hozirgi zamon bolalar shoiri va yozuvchilarining asarlaridan qiziqarli tarzda tashkil etiladigan darslar orqali unumli foydalanish;

✓ fanlararo uzviylikka e'tibor berish, amaliy, ijodiy mashg'ulotlarni ko'proq kiritish, bu borada mahoratli o'qituvchilarning ijodiy ish tajribalaridan keng foydalanish.

"Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida har bir pedagog ta'lim muassasasining spetsifik xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatini o'quvchilar jamoasining umumiy tayyorgarliklariga individual va differensial yondashgan holda tashkil etmog'i va amalga oshirib bormog'i lozim.

XULOSA

Jamiyat, madaniyat va ta'lim rivojlanayotgan, globallashuv tobora keng avj olayotgan bugungi kunda milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda ta'limiy innovatsiyalar tatbiqini yaxshilash, ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini innovatsion yo'naltirishning zarurligini quyidagi holatlar belgilaydi:

✓ birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar ta'lim sifatini yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarish zarurligini taqozo etadi. Bunda pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish, foydalanish va ta'lim jarayoniga tatbiq etishni o'z ichiga olgan o'qituvchilar pedagogik faoliyatining innovatsion yo'nalganligi ta'lim siyosatini yangilash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

✓ ikkinchidan, ta'lim mazmunining insonparvarlashuvi, o'quv predmetlari hajmi va tarkibining o'zgarishi ta'limning yangi tashkiliy shakl va texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etilishini talab etadi.

✓ uchinchidan, o'qituvchilarning pedagogik yangiliklarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga bo'lgan munosabatlari o'zgarib bormoqda. Avval innovatsion pedagogik faoliyat, asosan yuqoridan taklif etilgan yangiliklarni ta'lim jarayoniga joriy etish bilan cheklangan bo'lsa, hozir u tanlanadigan tadqiqot xarakteriga ega bo'lib bormoqda. Shuning uchun, ta'limni boshqarish tashkilotlari faoliyatida o'qituvchilar tomonidan ta'lim amaliyotiga kiritilayotgan pedagogik innovatsiyalarni tahlil qilish va baholash, ularni ishlab chiqish va tatbiq etish uchun qulay ta'limiy sharoit yaratish muhim yo'nalishga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2020-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

hamda rivojlanadi. Ta'lim sifatiga bog'liq holda ushbu munosabatlar darajasi va albatta siyosiy-iqtisodiy munosabatlar ham o'zgaradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqorida keltirilganlardan xulosalash mumkinki, bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan barcha muammolar ildizi ta'lim-tarbiya tizimidagi sifat nuqsonlari natijasi desak xato bo'lmaydi.

Barcha muammolarni faqatgina yuksak darajadagi ong, to'g'ri tafakkur va beqiyos bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat yo'li bilangina hal etish mumkin. Bunga ta'lim-tarbiyaga e'tiborni yanada oshirish, bu sohaga yanada ko'proq mablag' ajratish orqali ta'lim sifatini yuksaltirish orqali erishish mumkin.[5]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida bayon etilgan ko'rsatmalarni amalga oshirish va tayyorlanayotgan mutaxassislar sifatini jahon ta'limi andozalari talablariga mos bo'lishini ta'minlash bugungi kunda ta'lim tizimi oldidagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. O'z o'rnida mazkur masala va muammolar yechimi yo'lida yurtimizda keng ko'lamdagi ta'lim islohotlarini amalga oshirish, ta'lim jarayoniga axborot va zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, ta'lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash kabi vazifalarni amalga oshirish ta'limga yangicha yondashuvni talab etadi.

Zotan, ta'lim va tarbiyaning hayot talablari va bugungi taraqqiyotimizning muhim muammolari bilan birga o'rganish, uni yanada boyitish, takomillashtirish va tushuntirish, targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, "Tarbiya" fanining asosiy vazifasi o'quvchilarda yangicha dunyoqarash va mafkuraviy immunitet asoslarini, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, yosh avlod qalbida g'oyaviy bo'shliq vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik, ularni ajdodlarning shonli kechmishi, fidokorligi va qahramonona hayoti ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Ayniqsa, axborot va globallashtiruv asri deb atalayotgan bugungi kunda ushbu maqsadga erishish uchun o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.[4]

"O'zbek tilining izohli lug'ati"ning uchinchi jildida tarbiya so'ziga quyidagi ta'rif berilgan. Tarbiya so'zi arab tilidan olingan bo'lib, rivojlantirish, o'stirish, o'rgatish, ilm berish ma'nolarini bildiradi. Ta'lim, odob-axloq va shu kabi shakllarni o'rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg'aytirish, o'stirishdir. Shuningdek, insonda ish-hunar, odob-axloqni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo'lgan xislatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo'l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilar tushuniladi.

Ta'lim so'zi ham arab tilidan olingan bo'lib, o'rgatish, o'qitish, ilm berish, ma'lumot berish ma'nolarida qo'llaniladi. Yana bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Shuningdek, ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui hisoblanadi.

Metodika - pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Fanni o'qitish metodikasi - ta'lim tizimida ushbu o'quv fanining ahamiyati va o'rnini belgilaydi, uning vazifalari, o'qitish mazmuni va hajmini aniqlaydi, ushbu fan bo'yicha qo'llanilayotgan usul, shakl va vositalarini o'z ichiga oladi.[2]

"Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, o'qitish jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishga yo'naltirilib, u o'quvchilarga ushbu fandan puxta bilim berish, ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda tarbiya kursining maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini hamda tarbiya fanini o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi. "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasini asosiy fan sifatida o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, tarbiya o'qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat.

Xalq ta'limi tizimida ham sifatli ta'limni joriy etish maqsadida, barcha o'qituvchilar tushunadigan sodda va aniq tilda "Dars muqaddas", "O'rgan - o'rgat", "Sog'lom muhit - sog'lom jamoa", "Uzluksiz va uzviy" kabi innovatsiyalar amaliyotga joriy qilindi. Mazkur innovatsiyalarning mantiqiy davomi sifatida "Yaxshi muallim - sifatli ta'lim" deb nomlangan tashkiliy metodik tadbirlar kompleksi tavsiya etilmoqda. [3]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda:

✓ bugungi kunda o'quvchi yoshlarning aqliy kamoloti rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga

PEDAGOGIKA

skills to be acquired and obtained in the fields of science or profession.

Kalit soʻzlar: taʼlim jarayoni, taʼlim dasturi, rivojlanish, boshlangʻich taʼlim, pedagogik-psixologik, qadriyat, tarbiya nazariyasi, taʼlim jarayoni, maʼnaviy takomillashtirish, jamiyat taraqqiyoti, axborotlashgan jamiyat, modernizatsiya, rivojlantirish omili

Ключевые слова: образовательный процесс, образовательная программа, развитие, начальное образование, педагогико-психологический, ценность, теория образования, образовательный процесс, нравственное совершенствование, социальное развитие, информационное общество, модернизация, фактор развития

Key words: educational process, educational program, development, primary education, pedagogic-psychological, value, educational theory, educational process, moral improvement, social development, information society, modernization, development factor

KIRISH

Mamlakatimizda taʼlim tizimiga berilayotgan eʼtibor, Prezidentimiz tomonidan koʻrsatilayotgan gʻamxoʻrlik, yoshlarimizni bilim olishlari uchun yaratilgan shart- sharoitlar tahsinga sazovor. Aynan bu jarayonda yoshlar bilimni oshirish, mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash, taʼlim oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bu borada oliy taʼlim sohasida xorijiy tajribalar integratsiyalashuvi rivojlantirishning ahamiyati va oʻrni kattadir.

Globalashuv - insoniyatning ongu-shuuri va tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon. U chegara va hududlarni bilmaydigan, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib va rivojlanib borayotgan, axborotlashgan jamiyatga oʻtish jarayonidir. Bunday jamiyatda faqat inson tafakkuri yetakchi oʻrin egallaydi.

Tafakkur - jamiyat taraqqiyoti darajasini koʻrsatuvchi oyna. Bu oynada muvaffaqiyatlar ham, kamchiliklar ham ayon koʻrinadi. Sir emaski, insonning nechogʻlik mukarramligi, komilligi fikrlash darajasi, tafakkuri bilan belgilanadi. Axborotlar inson tafakkuri va fikrlash qobiliyatini qay darajada shakllanishiga taʼsir etuvchi asosiy omildir. Shu sababli zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyatning hozirgi davrdagirivoji axborotlashtirish jarayoni bilan xarakterlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi 2012-yil 16-17-fevral kunlari Toshkent shahrida oʻtkazilgan xalqaro konferensiyada soʻzlagan nutqida XXI asrga shunday taʼrif beradi: "Biz yashayotgan XXI asr - intellektual boylik hukmron qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni oʻz vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va xalq kundalik hayot mazmuniga aylanmasa, bunday davlat jahon taraqqiyoti yoʻlidan chetda qolib ketishi muqarrar". Intellektual boylik va salohiyat manbasi, uni rivojlantirish omili taʼlim-tarbiya jarayonining sifati hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlardan taʼlim sifati insoniyatning barcha hayotiy-muhim faoliyatlariga taʼsir etadi.

Birinchidan, insoniyat sivilizatsiyasi barcha sohalarda, jumladan, taʼlim tizimida ham global oʻzaro bogʻliqlik darajasigacha erishdi. Hozirgi kunda bitta davlat yoki millatning muammosi butun jahon rivojiga katta taʼsir etishi mumkin. Yuzaga kelgan ekologik, iqtisodiy, siyosiy muammolar va inqirozlarning yechimi faqatgina insoniyatdan kelajakda aqliy va maʼnaviy rivojlanishni talab etadi. Bunga esafaqatgina toʻgʻri va sifatli taʼlim tizimini yoʻlga qoʻyish orqaligina erishish mumkin.

